

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI IKKINCHI DARAJA LEKSIK ASOSINI YARATISH MEZONLARI

Xolmuradova Jamila Irmetovna

Toshkent amaliy fanlar

universiteti dotsenti, f.f.n.

jamilaxalmuratova66@mail.ru

Yusupova Latofat Qadamovna

TAFU magistranti

Annotatsiya: Davlat ta'lif standarti ona tilini o'qitishda yuqorida ta'kidlangan lingvistik va metodik asoslarga tayangan holda til o'rgatuvchi uchun yo'riqnomalar vazifasini o'tashi ona tilini o'qitishda tilning ikkinchi darajasi uchun nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya va asosan, leksika va uslubiyatga oid bilimlar hamda ularni takrorlash asosida shakllantirilganligi haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat ta'lif standarti, ko'nikma, o'rganish, o'qitish, baholash, intellekt, kompetensiya, daraja, mentalitet.

Har bir tilni o'rganish va o'rgatishning lingvistik hamda metodik asoslari mavjud. Lingvistik asos muayyan tilning tilshunoslikdagi barcha bo'limlariga oid mukammal nazariyani angatsa, metodik asos o'z navbatida barcha nazariy bilim va ko'nikmalarni o'rganuvchining shaxsi, yoshi, intellekti, ijtimoiy mavqeyi va boshqalarni hisobga olgan holda jamlangan amaliy yo'l-yo'riqlarni bildiradi. Bu borada dunyodagi barcha tillarning o'rganish va o'qitish dasturulamallari bor. Jumladan, ingliz tilini o'rganish, o'qitish va baholash maqsadida ishlab chiqilgan CEFR(L) bugungi kunda nafaqat ko'pgina Yevropa tillari uchun, balki turkiy tillar uchun ham amal qilmoqda. Bundan tashqari, muayyan davlat tilini o'qitish uchun o'sha davlat tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum me'yoriy hujjatlari va davlat ta'lif standarti ishlab chiqiladi.

"Davlat ta'lif standarti ta'lif mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lif mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lif standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi."¹

¹ Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifimning davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami). –Toshkent, 1999. 2-b.

Davlat ta’lim standarti ona tilini o‘qitishda yuqorida ta’kidlangan lingvistik va metodik asoslarga tayangan holda til o‘rgatuvchi uchun yo‘riqnomalar vazifasini o‘taydi.

Davlat ta’lim standarti (DTS) bo‘yicha ona tilini o‘qitishda tilning ikkinchi (B1 va B2) darajasi uchun nutqiy kompetensiya – to‘rt asosiy ko‘nikma (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) asosida, lingvistik kompetensiya, asosan, leksika va uslubiyatga oid bilimlar hamda ularni takrorlash asosida shakllantirilishi belgilab qo‘yilgan. Nutqiy kompetensiyaviy yondashuv CEFRDa ham yuqoridagi to‘rt ko‘nikmaga binoan me’yorlashtirilgan. DTSda tilning ikkinchi darajasi B1 – ona tili fani chuqurlashtirilmagan o‘rta ta’lim bitiruvchilar uchun standart daraja hisoblansa, B2 (“B+” tarzida berilgan) – ona tili fanini o‘rganishning kuchaytirilgan darajasidir. CEFRDa B1 til darajasi *Intermediate (“o‘rta”) level* deb nomlanib, uning umumiy ta’rifi quyidagicha:

“*Intermediate level – B1 daraja – tilning mustaqil foydalanuvchilariga, ya’ni ona tilida so‘zlashuvchilar bilan qiyalmasdan muloqot qilish uchun kerakli nutqiy ravonlikka ega bo‘lganlar uchun mos keladi, bu ingliz tilida yetarlicha ravon gaplashishga, ko‘plab professional va kundalik mavzularni muhokama qilishga hamda ingliz tilida aytilganlarning hammasini tushunishga imkon beradigan o‘rta darajadir. Jamiyatda deyarli barcha ish beruvchilar o‘zlarining potensial yoki haqiqiy xodimlaridan ingliz tilini Intermediatedan past bo‘lmagan darajada bilishni talab qilishadi.*”²

CEFRDa ingliz tilini B1 darajasiga ega bo‘lgan insonning qanday bilimga ega bo‘lish kerakligi quyidagi 3-jadvalda ko‘rsatilgan:³

Malaka	Bilimlar
Grammatika	B u darajadagi til o‘rganuvchi ingliz tilining barcha zamonlarini biladi: hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon. Ularning ba’zan biri o‘rnida boshqasi kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni ham tushunadi. Modal fe’llar va ular o‘rtasidagi farqni yaxshi anglaydi. Fe’lning vazifa shakllaridan unumli foydalana oladi. Sifat va uning darajalarini biladi. Sodda va qo‘shma gap konstruksiyalarini nutqiy vaziyatga qarab tuzoladi.

² What is English B1level? // [www.britishcouncil.org.](http://www.britishcouncil.org/)

³ Yohann Shustereder. Beshinchi o‘quv moduli: Chet tilini o‘qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017. 18-b.

Leksika	Bu til darajasidagi insonning so‘z boyligi 2000 dan 3000 gacha so‘z va iboralarni tashkil etadi. Nutqda ko‘p takrorlanuvchi ba’zi iboralar va iborali fe'llarni yaxshi biladi, ayniqsa, o‘ziga kerakli sohaviy va kasbiy lug‘atni yaxshi anglaydi. Bu til darajasidagi lug‘at umumiy so‘zlashuv lug‘atidan tashqari, o‘rta darajadagi turli xil iboralar, nutqiy burilishlar va boshqa turg‘un birikmalardan iborat. Bunda til o‘rganuvchi qshimchalar yordamida yangi so‘zlarni yarata olish, so‘zlarning sinonimlari va antonimlarining leksik-semantik tafovutlarini farqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.
Gapirish	Og‘zaki nutqi aniq, talaffuzi boshqalar uning nutqini tushunishadigan darajada yaxshi, ya’ni gapning qaysi qismida mantiqiy urg‘u va pauzalardan foydalanish kerakligini biladi, suhbat davomida uzoq pauza qilmaydi. Tashqi ko‘rinishni tavsiflashi, ta’lim va ish tajribasi haqida gaplashishi, turli masalalar bo‘yicha o‘z fikrini bildirishi - deyarli har qanday mavzuda suhbatlashishi mumkin. Bilvosita og‘zaki nutqda frazema va ba'zi iboralarни ishlataladi, murakkab grammatik tuzilmalar (ergash gapning turlari, fe'l nisbatlari)dan foydalanadi.
O‘qish	Til o‘rganuvchi o‘z darajasiga moslashtirilgan adabiyotlarni tushunib o‘qiydi. Internetda, gazeta va jurnallardagi umumiy mavzudagi maqolalarni tushunadi, garchi notanish so‘zlarga duch kelsa ham. Oddiy adabiyotlarni asl nusxada o‘qiydi, o‘qigan matnining ma'nosini tushunadi, ammo notanish so‘zlarni uchratishi mumkin. Bu ko‘nikma nisbatan murakkab bo‘lib, ammo hali ham moslashtirilgan matnlarni tushunishga imkon beradi, o‘zlashtirilmagan adabiyotlarni o‘qishga harakat bo‘ladi. O‘rta darajadagi matnlar o‘rganilgan barcha matnlar birlashtirilgan va avtomatlashtirilgan o‘ziga xos kontekstdir.
Tinglab tushunish	O‘rta darajaga moslashtirilgan audio yozuvlarni mukammal tushunadi. Mahalliy ma'ruzachilarining aksentini tilni endi o‘rganuvchilar aksentidan ajratoladi. Subtitr bilan sof

	xorijiy tildagi filmlar va seriallarni tomosha qiladi va tushunadi. Mutaxassislarning fikricha, B1 darajadagilar uchun tinglash hali ham muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu darajadagi audio matnlar o‘rtada darajadan oldingi matnlarga qaraganda ancha uzunroq, ammo uzun treklar qismlarga bo‘linadi, ular uchun har xil turdag'i vazifalar taqdim etiladi. O‘rtada darajadagi o‘quvchi umumiy ma'no va individual tafsilotlarni ajratib, ish, o‘qish va kundalik hayot bilan bog‘liq bo‘lgan aniq ma'lumotlarni tushunadi, ammo nutqida ozgina aksent bo‘lishi mumkin.
Yozish	Jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzadi. Norasmiy xat yoki kichik rasmiy xatlarni yoza oladi, rasmiy hujjatlarni ingliz tilida to‘ldirishi mumkin. Har qanday joylar, voqealar, odamlar haqida yozma tavsif berishi, taklif qilingan matnni sharhlashi mumkin. Bu ko‘nikma nafaqat yozma so‘zlashuv uslubi bilimlarini, balki rasmiy uslubda ish yuritish bilimlarini o‘zida jamlagan. B1 darajada yozma topshiriqlarning umumiy mavzulari — biror kishini tasvirlash, hikoya aytib berish, norasmiy xat, uy yoki kvartirani tasvirlash, rasmiy xat va tarjimai hol, filmlarga sharh, jurnal uchun maqola kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ingliz tilining B1 darajasiga moslashtirilgan o‘quv dasturiga kiruvchi suhbat mavzulari — oila va shaxsiyat, insonlarning tashqi qiyofasi va xarakterini tavsiflash, ish, pul va muvaffaqiyat, biznes, ta’lim, muomala madaniyati, transport va sayohat, yashash joylari, tabiat va atrof-muhit, iqlim va tabiiy ofatlar, aloqa — TV va ommaviy axborot vositalari, kino va filmlar, san’at, xarid qilish, oziq-ovqat va restoranlar, turmush tarzi, sport, do’stlik, qiyinchiliklar va muvaffaqiyat, yaxshi va yomon odatlar, jinoyat va jazo kabilalar.

O‘rtada kuchli tayanch lug‘at va grammatik bilimlarni shakllantirishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Keyingi darajalar faol va passiv so‘z boyligini chuqurlashtirish va kengaytirish, tilning nozikliklari hamda so‘z badiiyatini anglashga mo‘ljallangan.

Ona tilini o‘qitishda DTSga asoslangan B1 daraja uchun kompetensiyaviy talablar quyidagicha:

Nutqiy kompetensiya - tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish. **Tinglab tushunish:** sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini,

maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riliqi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta‘sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi.

So‘zlash: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta‘sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta‘sirchan o‘qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi.

Yozish: Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Fikr ifodasida mantiqan izchilllikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalanadi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi, izohlay oladi. 30 — 35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya. Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalana oladi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini izohlay oladi.

Uslubiyat: so‘z turkumlari, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izohlay oladi. So‘z birikmasi gap va uning grammatik belgilari, dialogik nutq belgilari, gap bo‘lagining tiplari, sodda va qo‘shma gaplar ma’nodoshligini, sintaktik qurilmalarni, ko‘chirma gap, matnning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o‘rinli foydalana oladi.⁴

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, agar o‘zbek tilini o‘qitish va baholash darajasini ishlab chiqishda ona tili fanidan DTS talablari yagona standart dasturulamal vazifani o‘tasa, uni qo‘shimcha tarzda tillarni xalqaro darajalash tamoyillari, jumladan, CEFRЛning umumiyligi talablari bilan mushtarak holda mukammallashtirish, tilni o‘qitishda nazariya hamda amaliyotning izchilligiga e’tibor qaratish va o‘zbek tilini nafaqat tub aholi vakillari, balki til o‘rganuvchi xorijliklar uchun ham amal qiladigan me’yorlariga, tilning milliy xususiyatlari, o‘zbekona ruh va mentalitetning tildagi ifodasiga e’tibor qaratish lozim. Bunda o‘zbek tili B1 darajasining kompetensiyaviy talablarini aniqlashtirish, lug‘at tarkibini ham leksik, ham miqdor jihatdan tartiblash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi. – Toshkent :“Iqtisod-Moliya”, 2006.
- Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili (11-sinf, II qism). – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

⁴ O‘rtta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari // www.hozir.org.

3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova S. O ‘zbek tili o ‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limimning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). –Toshkent, 1999. 2-b.
5. Yohann Shustereder. Beshinchi o‘quv moduli: Chet tilini o‘qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017. 18-b.